**Oxorlash bo'limi.**Oxor mashinalarini orasidagi yo'lak 800-1000mm.dan kam bo'lmasligi. Mashinani oldi qismi bilan devor oralig'i 2-3m.bo'lishi.Mashina va tanda g'altakli ustunlari orasidagi masofa 400-500mm. . Tanda g'altak ustunlari va devor orasida, partiyadagi tanda g'altaklar stelaji joylanishi uchun maydon qolishi kerak. Stelaj va ustun orasidagi o'tish yo'lak masofasi 1- 1,5m.bo'ladi.Oxorlash bo'limida to'quv g'altaklarni saqlash ,tozalash, tekshirish va tabmirlash uchun joy qolishi lozim .SHunindek torazilarni, stolarni (xisobchiniki va ichimli suv baki uchun) saqlash joylari xam inobatga olish lozim.

**O'tkazish-ulash bo'limi.** Yon tomonidan yoritilgan fabrikalarda o'tkazish dastgoxlari oynak oldiga shunday joylash keraki o'tkazuvchi ishini o'ng tomonidan yoriq tushishi kerak. o'tkazish dastgoxlarini orasidagi yo'lak eni 500- 700mm. bo'ladi.Yuqoridan yoritiladigan fabrikalarda o'tkazish dastgoxlari devor oldiga o'tkazilmagan tanda g'altaklari va o'tkazilgan tanda g'altaklari o'rtasida, to'quv tsexiga yaqin joyda joylashadi. Ulash mashinalari devor oldiga va to'quv tsexiga yaqin joyda joylashadi. O'tkazish-ulash bo'limida o'tkazilgan va o'tkazilmagan tanda g'altaklari saqlash, tig', shodalar, lamelar, stolar (xisobchiniki va ichimli suv baki uchun) joylari ham inobatga olish lozim.

**To'quv tsexi.** To'quv dastgoxlari juft xolda joylaynishi quyidagilarni ta minlaydi:

1) komplet dastgoxlarda ishchini, master yordamchisini va arqoq tashuvchini ishini manevreni kengayishi.;

**2) komplet chegaralarini aniq belgilanishi;**

- 3) to'quvchini komplekt dastgoxlariga xizmat ko'rsatish marshrutini tanlashda katta imkoniyat berishi;
- 4) ta'mirlovchi va yordamchi ishchilarni dastgoxlarga qulay xizmat ko'rsatishi;
- 5) tanda va arqoq iplarni to'quv dastgohiga, to'quv dastgohidan xom-to'qimani sifat-nazorat bo'limiga qulay yetkazib berishi;
- 6) kolonalarga nisbatan dastgohlarni qulay joylashtirish;
- 7) dastgohlarni texnik xodimlari qulay nazorat qilishi;
- 8) kapital remontga dastgohni qulay olinishi yoki alohida uzelni olish;
- 9) ko'p yo'laklar soni , avariya paytida ishchilar ish joyidan ketishi uchun.

To'quv dastgohlarini o'tkazish-ulash, xom-ashyo va sifat-nazorat bo'limlariga nisbatan frontal xolda joylanishi katta qulayliklar yaratadi. To'quv tsexida imkoni boricha juft dastgoxlar soni joylansa, dastgoxlarni joylashda katta manevren imkoniyatini beradi. To'quv tsehida quyidagi yo'laklar bo'ladi: ishchi, zaskalbniy, transport va devor oldi.

### **III. Mehnat muhofazasi**

#### **To'quv korxonasida ishchilarni shovqin va titrashdan himoyalash chora tadbirlari.**

Ishlab chiqarish korxonalaridagi zararli omillardan hisoblanadigan shovqin va titrash inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish korxonalaridagi texnologik jarayonlarda, mashina, jihozlar ishlayotganda shovqin va titrash paydo bo'ladi. Shovqin va titrashning asosiy manbalari - ishlayotgan mashina, qurilma, kompressor, lentali transportyor, shamollatish qurilmalari, transport vositalari kabilar hisoblanadi.

Shovqin va titrash elastik muhit zarralarining to'lqinsimon tarqaladigan tebranma harakatidir. Shovqinning o'zi - yoqimsiz tovush deb atalishi mumkin.

Shovqin va titrashning insonga ta'siri tebranishlar chastotasiga bog'liq. 16 Gts dan kam chastotali tebranishlar odamga silkinish - titrash kabi ta'sir qiladi. Undan yuqori, toki 20000 Gts chastotali tebranishlar shovqin hosil qiladi, ularni baholashda Detsibal(dB)da ifodalanadigan tovush bosimi qo'llaniladi. Tovush bosimi darajalari quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$L_p = 10 \lg P$$

bu yerda: P - berilgan nuqtadagi tovush bosimi, N/m<sup>2</sup> ; Po - tovush bosimining minimal kattaligi, bu 210<sup>5</sup> N/m<sup>2</sup> ga teng.

Har xil shovqin manbalari turlicha tovush bosimlarini hosil qiladi. Quyida ayrim shovqin manbalari hosil qiladigan tovush bosimlari darajalari dB da berilgan:

Pnevmatik asbob ishlaganda (1m masofada)	10-120,
kompresor stantsiyasi ishlaganda	110,
metall qirqish stanoklari ishlaganda	93-114,
bolg'a po'lat plitaga urilganda	114,
1 m masofada o'rtacha gapirishdagi ovoz	60,
reaktiv dvigatel ishlaganda	140 dan yuqori,
qurilish - montaj to'pponchasi otilganda	120,
og'riq boshlanishi (tovushdan)	130-140.

Bir necha manbadan bir xil masofada j oylashgan nuqtada chiqadigan shovqin kuchini aniqlashda

$$L = L_1 + 10 \lg N$$
 formuladan foydalaniladi;

Bu yerda: L<sub>1</sub> - 1 ta manbadan chiqadigan shovqin kuchining darajasi, dB; N - shovqin manbalarining soni.

Shovqin kuchining kattaligi insonning shovqinni his etishini harakterlay olmaydi, chunki shovqinning fiziologik his etilishi faqat uning intensivligiga emas, balki chastotasiga ham bog'liq. Shu sababli shovqinning balandligi tushunchasi kiritilgan. Turli manbalardan chiqadigan shovqinning balandlik darajasini (o'lchov birligi - fon) miqdoriy baholashda 1000 Gts chastotada shovqin bilan solishtirish usuli qo'llaniladi. Buning uchun shovqin kuchining darajasi shartli ravishda balandlik darajasiga teng qilib olingan. Shovqin kuchining darajasi ortganda shovqinning balandlik darajasi pasayadi. Shovqin kuchining darajasi 80 dB dan yuqori bo'lganda uning balandligi chastotasiga deyarli bog'liq bo'lmaydi.

Shovqin parametrlariga o'xshash bo'lgan titrash parametrlari quyidagicha

$$L = 20 \lg \frac{v}{v_0}$$

bu yerda: v - o'lchash nuqtasida tebranma tezlik, m/s; v<sub>0</sub> - tebranma tezlikning bo' sag'a (sezish) kattaligi, bu 510<sup>2</sup> m/s ga teng.

**Mexanik shovqinlar.** Mexanik shovqin chiqaruvchi omillarga quyidagilar kiradi: xar xil mashina mexanizmlar qismlarining turli tezlanishda xarakatlanishi natijasida kelib chiqadigan inertsiya kuchlari, birikmalardagi zarba kuchlari, birikmalardagi ishqalanish kuchlari ta'sirida, zarba yo'li bilan ishlov berish (toblash, shtampovka) natijasida paydo breladigan shovqinlar;

mashina bajarayotgan ishga bog'liq bo'lmagan shovqinlar: sharikli podshipniklar, tishli g'ildiraklar, qayishli uzatishlar va mexanizmlarning muvofiqlashtirilmagan aylanma xarakat qiluvchi qismlari chiqarayotgan tovushlar.

Aylanuvchi qismlar tebranish chastotalari  $n/60$  nisbat bilan aniqlanadi.

Tovush bosimi aylanish tezligiga bo'liq bo'ladi. Masalan? sharikli podshipniklarning aylanish tezligi  $n_1$  dan  $n_2$  (ayl/min)ga  $k^{\wedge}$ paysa, shovqin quyidagicha aniqlanadi.

$$L = 23.3 \lg \text{---}$$

Tishli g'ildiraklar keng diapazondagi tovushlar chiqaradi. Chiqarayotgan tovush tishli g'ildirak xarakat tezligiga va uzatilayotgan kuch miqdoriga bog'liq bo'ladi. Xarakat tezligi katta va uzatilayotgan kuch miqdori xam katta bo'lsa, shovqin bosimi shuncha kuchli bo'ladi. Mexanik shovqinlarni kamaytirishning asosiy omili bu mashina-mexanizmlarning birikuvchi qismlarini tayyorlashda iloji boricha aniqlikka erishishdir. Ko'pincha, mashina-mexanizmlarning yoyilib ketgan qismlari shovqinning zo'rayishiga olib keladi. Mexanizmlarning birikuvchi qismlarini o'z vaqtida moylash xam shovqinni kamaytirishda yaxshi natija beradi.

Mexanik shovqinlarni kamaytirish uchun asosan quyidagilar bajarilishi kerak:

Zarbali jarayonlarni zarbasiz bajariladigan jarayonlar bilan almashtirish, masalan, qiyshiq tishli va ekstsentrikli uzatmalarni gidravlik uzatmalar bilan almashtirish, shtampovkani presslash bilan, qoqishni payvandlash bilan almashtirish kerak va x.k.

To'g'ri tishli g'ildiraklarni qiyshiq tishli yoki shevron tishli g'ildiraklar bilan almashtirish kerak. Shuning uchun tishli g'ildiraklarni tayyorlashda birikuvchi yuzalar silliqligini ta'minlash shovqinni 5-10 dB kamaytirish imkonini beradi. To'g'ri tishli g'ildiraklarni shevron tishliga almashtirish shovqinni 5 dB ga kamaytiradi.

Iloji boricha tishli g'ildirakli va zanjirli uzatmalarni ponasimon tasmali uzatmalar bilan almashtirish kerak. Bunda biz shovqinni 10-14 dB kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Sharikli podshipniklarni sirg'aluvchi podshipniklar bilan almashtirish kerak, bu shovqinni 10-15 dB kamaytiradi.

Iloji boricha metalldan qilingan detallarni metallmas detallar, masalan, kapron, tekstolit, plastmassa detallar bilan almashtirish yoki metall tishli g'ildiraklar juftiga kapron, tekstolitdan yasalgan g'ildiraklar o'rnatish shovqinni 10-12 dBga kamaytirishi mumkin.

Korpus detallarini tayyorlashda plastmassa materiallaridan foydalanganda, masalan, reduktor qopqog'i plastmassadan tayyorlanganda past chastotadagi shovqinlar 2-6 dBga, yuqori chastotadagi shovqinlar esa 7-15 dBga kamaytiriladi. Metall detallarni tanlaganda xar xilli metallarning ichki qarshiligi turlicha ekanligini xisobga olish muxim. Chunki ichki qarshilikning o'zgarishi metall jarangdorligini oshirishga yoki kamaytirishga yordam beradi. Masalan,




chreyanga nisbatan po'lat jarangdor xisoblanadi. Ba'zi bir qotishmalar jarangdorligi keskin kam bo'lishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun xam birikmalarda qotishmalardan foydalanish yaxshi natija beradi. Mexanizmlarning aylanuvchi qismlarining mutanosibligini ta'minlash zarur. Tosh maydalash qurilmalarida shovqinni kamaytirish maqsadida uning devorlarini rezinadan qilingan materiallar yoki asbestdan qilingan karton vositalari bilan qoplash maqsadga muvofiqdir.

**Aerodinamik shovqinlar.** Xozirgi zamon texnika taraqqiyoti davrida xavo va suyuqliklarni bir joydan ikkinchi joyga yuborish ishlari keng qo'llanilmoqda. Bunday ishlarni bajarish davrida xavo bosimi xosil qilish va ularni uzatishda shovqin darajasi kuchayadi. Masalan, ventilyatorlar, kompressorlar, gaz turbinalari, xavo va bug' bosimining oshib ketmasligini ta'minlovchi saqlash qurilmalari, ichdan yonar dvigatellar aerodinamik shovqin chiqarish manbalari xisoblanadi.

Demak, aerodinamik shovqinlarga aylanuvchi parraklar ta'sirida xosil bo'lgan xavodagi bosim xar xil yo'nalishlar bo'ylab xavoning keskin oshuvchi xarakat yo'nalishlarini vujudga keltiradi. Bu xarakatlanayotgan oqimda xar xil qarshiliklar tufayli aylanma xarakat xodisalari vujudga keladiki, bunda xarakatlanayotgan oqim tizimida bir vaqtning o'zida xam siqiluvchi, xam siyraklanuvchi qatlamlar vujudga keladi, bunday xodisalar navbatma-navbat takrorlanishi, vaqt-vaqti bilan xosil bo'lishi xam mumkin.

Bunday xarakatlar, atrof-muxitga ovoz to'lqinlari sifatida tarqaladi. Bunday tovush aylanuvchi tovush deb yuritiladi.



bu yerda Sh-Struxal soni, tajriba yo'li bilan aniqlanadi; V-oqimning tezligi, m/s; D-sharsimon va tsilindsimon oqim yo'naltiruvchilar uchun ularning diametrlari. Aylanuvchi tovush chastotasi



ta'siridagi shovqin biror-bir murakkab formadagi to'siqni aylanib o'tganda tekis spektr xosil qiladi. Uning bosimi quyidagicha aniqlanadi:

$$R = KC_x^2 V^6 D^2$$

Bunda K-to'siq formasi va oqim rejimiga bog'liq bo'lgan koeffitsient;  $S_x$ -qarshilik koeffitsienti.

Ventilyatorlarning tarqatayotgan shovqin darajasi quvvatini aniqlaganda SNiP 11-12-77 asosida ish tutiladi. Bunda ventilyator xosil qilayotgan to'liq bosim  $N$  ( $\text{kgs/m}^2$ ) va uning quvvatiga qarab ( $Q$   $\text{m}^3/\text{s}$ ) shovqin darajasi tanlab olinadi. Bu daraja xar xil ventilyatorlar uchun  $x=35 \wedge 50$  dB ni tashkil qiladi.

$$L_p = L + 25 \lg N + 10/gQ$$

Boshqa shovqin chiqaruvchi aerodinamik tizimlarda shovqinning xarakteri va chiqayotgan manbaiga qarab, shuningdek chastotalarini xisobga olgan holda umumiy maxrajga keltirilgan yig'indi-shovqin darajasi aniqlanadi. Masalan, eng qattiq shovqin xosil qiluvchi kompressorlarda shovqin darajasi umumiy yig'indi sifatida 135-145 dBni tashkil qiladi. Bunda so'rish tizimda chiqayotgan shovqin yuqori chastotadagi diskret to'lqinlardir.

**Gidrodinamik shovqinlar**, Gidrodinamik shovqinlarga suyuqliklarni nasoslar yordamida bir joydan ikkinchi joyga yuborishda xosil bo'ladigan shovqinlar, asosan nasosning xarakatlanuvchi qismlarining nosozligi va gidravlik zarbalar ta'sirida kelib chiqadigan shovqinlarni keltirish mumkin. Ularni yo'qotishda mana shu shovqinlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni, ya'ni nasoslarning xarakatlanuvchi qismlarining mutanosibligini ta'minlash, gidravlik zarbalar kelib chiqishini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash zarur.

**Elektromagnit shovqinlar**. Elektr motorlarida stator va rotorning o'zaro magnit maydonlari xosil qilishi natijasida rotor aylanib, magnit maydonini kesib o'tishi bilan xosil bo'ladigan to'lqinlar elektromagnit shovqin sifatida tarqaladi. Bu shovqinlarni yo'qotishda asosan elektr motorlarini konstruktiv o'zgartirishlar bilan kamaytirishga erishiladi. Masalan, rotor yakorining to'g'ri pazlari o'rniga qiyshiq pazlar o'rnatish yaxshi natija beradi.

Elektr mashinalari ishlaganda, shuningdek aerodinamik shovqinlar xam chiqadi. Masalan, rotor aylanganda xavoning keskin to'lqinlanishi aerodinamik shovqin sifatida tarqaladi.

Bundan tashqari mexanik shovqinlar xam bo'ladi. Elektr qabul qiluvchi shchetkalarni yaxshilab silliqlab o'rnatishda elektrodvigatel ishlaganda ajralayotgan shovqin 6-10 dBga kamayadi.

**Shovqin yo'nalishini o'zgartirish**. Shovqin chiqayotgan manba agar biror-bir tomonga yo'naltirilgan bo'lsa, uning qarama-qarshi tomonida tovushning bosim darajasini 10-15 dBgacha kamaytirish imkoniyati bor. Bundan ba'zi shovqin tarqatuvchi qurilmalarni, shuningdek sanoat korxonalarini loyixalash ishlarida shovqinga qarshi chora-tadbir sifatida foydalanish mumkin.

Masalan, siqilgan gazlarni chiqarib yuboruvchi tizimlar, shamollatish va kompressorlarning chiqarish shaxtalari va x.k. lar ma'lum yo'nalishda yo'naltirilgan bo'lishi yaxshi natija beradi.

Bunda chiqarish trubalari albatta ish joylari va axoli yashash punktlaridan qarama- qarshi tomonga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

### ***Shovqin va titrashning sanitariya me'yorlari***

Ishlab chiqarish korxonalarida shovqin va titrashning inson organizmiga salbiy ta'siri - charchatishi, turli xil og'riqlar paydo qilishi oqibatida turli baxtsiz hodisalar, kasb kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin. Intensiv shovqin(95-100 dB) uzoq vaqt ta'sir etganda ayrim ishchilarning boshi og'riydi, uning o'zi qattiq charchaydi, tez jahli chiqadi. Keyinchalik eshitish organlari ishdan chiqadi. Shovqin va titrash birgalikda insonga bundan ham yomon ta'sir ko'rsatadi. Muayyan parametrlri titrash odamga uzoq vaqt ta'sir etganda markaziy asab tizimlari buziladi, barmoqlar tomiri tortishib, uyushib qolishi kuzatiladi. Hattoki suyak usishida jiddiy o'zgarishlar yuzaga kelib chiqishi kuzatiladi. Shuning uchun ishlab chiqarishda titrashni izolyatsiya qilishga qattiq e'tibor beriladi. Tovush bosimi va titrash uchun sanitar me'yorlar SN 245-71 da belgilab qo'yilgan bo'ladi. Masalan, 250 Gts chastotali shovqin uchun shovqin darajasi 91-103 dB, o'rtacha chastotali (250-100 Gts) shovqin uchun 85-91 dB, yuqori chastotali(1000 Gts dan yuqori) shovqin uchun 80-85 dB bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Titrash parametrlari me'yorlari: chastotalar diapazoni 1,4 - 90 Gts; garmonik tebranishlarda tarqalish amplitudasi 3,11 - 0,005 mm; tebranma tezlikning o'rtacha kvadratik qiymati 11,2 - 2 mmG's. Shovqin va titrash kuchlari darajalari IShV - 1 o'lchov asbobi yordamida aniqlanadi. Bu 22 dan 12000 Gts gacha chastotalar diapazonida 30 dan 150 dB gacha tovush bosimi darajasini o'lchaydi. Sh - 71 shovqin o'lchagichi 31,5 dan 8000 Gts gacha diapazonda ishlaydi va 30 dan 140 dB gacha tovush bosimi darajasini o'lchaydi. Shovqin o'lchagichlarning boshqa ko'rinishdagi turlaridan, masalan Germaniyaning RFT firmasida ishlab chiqarilgan PSJ turidagi shovqin o'lchagichlardan ham keng foydalaniladi.

Shovqin va titrash ta'siridan himoyalanihdan oldin ularni so'ndirgichlardan, izolyatsiya moslamalaridan foydalaniladi. Shovqinni pasaytirish uchun shovqin manbalarini to'siqlar bilan o'rashdan, xonaga turli shakldagi shovqin yutgich materiallarni osish usulidan, turli xildagi to'qima materiallardan foydalaniladi. Bundan tashqari individual himoya vositalari - quloqchin(naushnik)lardan foydalaniladi.

Titrahlardan himoyalanihdan titrash yutuvchi moslamalar - yumshoq materiallar, turli prujinali tagliklar o'rnatish kabi imkoniyatlardan foydalaniladi. Masalan, oddiy xo'jalik chok mashinasi tag qismiga turtta yumshoq rezina qirqim qo'yishning o'zidan titrashning pasayishini uy sharoitida kuzatish mumkin.

Yuqoridagi kabi tushunchalarni yoshlarga o'rgatishda hozirgi kunda ergonomika fani rivojlanib bormoqda. Ergonomika ishlab chiqarishda inson va mashinaning o'zaro ta'siri to'g'risidagi fan bo'lib, grekcha ergon - ish, nomos - qonun ma'nolarini anglatadi.

Ergonomika ikki asosiy fandan: muhandislik psixologiyasi va texnik estetikadan iborat. Ergonomika shuningdek, mehnatda insonning funktsional imkoniyatlaridan foydalanish yo'llarini o'rganadi, mehnat xavfsizligini va mehnat unumining o'sishini ta'minlaydigan, mehnat qilish uchun qulayliklar

yaratadigan, insonning ish qobiliyatini oshirishga, kuchi va sog'ligini saqlashga yordam beradigan mehnat sharoitlarini ishlab chiqadi, mehnatni ilmiy tashkil qilish va jamoada qulay ijtimoiy-psihologik sharoit yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

**Shovqin va titrashga qo'yiladigan talablar** Shovqin ta'siridan kishilar asosan asab kasalligiga yo'liqadilar. Bundan tashqari, shovqinning me'yorida ortib ketishi kishining ko'zi, oshqozon-ichak faoliyatlari ham zararlanishi hozirgi kunga kelib ma lum bo'ldi. Shuning uchun ham shovqinga qarshi ko'riladigan chora va tadbirlar muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

Shovqinni me'yorlash asosida tovushni me'yorlash yotadi. Shu maqsad yo'lida qabul qilingan standart me'yorlar (SN) va GOSTlarning ayrimlari quyidagicha maqsadlarni o'z ichiga oladi:

- GOST 12.1.003 - 83 - tovush me'yori, dBA, ishlab chiqarish korxonalarini va transport vositalarini uchn;
- SN 3077 - 84 - yashash joyi va binolarini shovqin bo'yicha me'yorlash, ruxsat etilgan shovqin me'yori;
- SN i P 11- 12 - 77 - yashash va jasoat binolari va xududlarida shovqinni me'yorlash. Titlash ta'siridan ham kishilar asosan asab kasalligiga yo'liqadilar. Bundan tashqari ichki organlar kasallanishi, ayniqsa suyak to'qimalari kasallanishi, buning natijasida hattoki suyak bug'irlarining noto'g'ri, ya'ni qiyshayish holatlari kuzatiladi. Shularni hisobga olib, titrashga me'yoriy talablar qo'yiladi.

Titlashni me'yorlash maqsadida quyidagi standart me'yorlar va GOSTlar qabul qilingan:

- GOST 12.1.012 - 90 - mehnat xavfsizligi standartlar sistemasi(tizimi), titrash xavfsizligining umumiy talablari;
- GOST 16519 - 78 - qo'l mashinalari. Titlash parametrlarini o'lchash usullari;
- GOST 12.4.002 - 74 - qo'lni titrashdan himoya qilish, individual himoya vosita. Umumiy talablar;
- GOST 12.4.024 - 76 - titrashdan himoyalovchi maxsus oyoq kiyimlar. Maxsus texnikaviy talablar.

Titrashdan va shovqindan himoyalaniş.

1. Shovqin va uning kelib chiqiř sabablari.
2. Titrash va uning manbaalari.
3. Shovqin ta' siridan kelib chiqadigan kasalliklar.
4. Ishlab chiqariřda shovqinni kamaytirish tadbirlari.
5. Titrash ta' siridan kelib chiqadigan kasalliklar.

#### 4.1-Jadval

6. Ishlab chiqariřda titrashni kamaytirish tadbirlari.

#### IV. Tashkiliy-iqtisodiy qism.

##### 4.1.Ishlab chiqariřning o'timlar bo'yicha chiqindini taqsimlanishi.

o'timlar	me'yoriy chiqindi					me'yorlashtir. chiqindi (pux,oxor. obmeti)
	jami	putanka	shu jumladan		podmyot	
			yumshoq va oxorl. tanda uchun uzunligi 2dan7gacha	7dan 30gacha		
	Tanda	liqindi				
Tandalash	0.5	0,05				0,03
Oxorlash	0.28		0,15	0,13		
O'tkazish	0.04			0,04		
To'quv	0.16			0,16		1,5
Jami	0.64	0,13	0,15	0,33	0,03	1,53
	Arqoq c	hiqindi				
To'quv	0,28	0,25			0,03	0,04
Jami	0,28	0,25			0,03	0,04

**1. Tanda va arqoq putankani miqdori.**

$$y_j = \frac{\text{Iyil.x.a.sarfi}(tan\ da) \cdot 0,5 + \text{Iyil.x.a.sarfi}(arqoq) \cdot 0,25}{100} = \frac{2386300 \cdot 0,5 + 1282400 \cdot 0,25}{100} = 15137,5$$

**2. 2-7gacha yumshoq va oxorlip uzunligini miqdori.**

$$\text{Iyil.x.a.sarfi}(tan\ da) \cdot 0,15 + 2386300 \cdot 0,15 = 357945$$

y ^

23 79 .45

3. 7-17 gacha yumshoq va oxorl.ip uzunligini miqdori.

$$y = \frac{1yil.x.a.sarfi(tan da) \cdot 0,13}{100} + \frac{2386300 \cdot 0,13}{100} = 3102,19$$

4. Tanda va arqoq ipini podmyot miqdori

$$y = \frac{1yil.x.a.sarfi(tan da) \cdot 0,03}{100} + \frac{1yil.x.a.sarfi(arqoq) \cdot 0,03}{100} + \frac{2386300 \cdot 0,03}{100} + \frac{1282400 \cdot 0,03}{100} = 100 = 100 = .$$

5. Pux va oxorni obmyotka ogirligi.

$$y = \frac{1yil.x.a.sarfi(tan da) \cdot 1,53}{100} + \frac{1yil.x.a.sarfi(tan da) \cdot 0,08}{100} + \frac{2386300 \cdot 1,53}{100} + \frac{1282400 \cdot 0,04}{100} = 37023,3$$

#### 4.2. Xom ashyo balansi .

To'quvchilik korxonasida ishlab chiqarishga keltiriladigan tanda va arqoq iplarini to'quvchilikka tayyorlash va to'qima to'qishda keyin undan to'qima va chiqindilar ajralib chiqadi. Amalda korxonaga keltirilgan xom ashyo (ip, OXOR moddalari) massasi korxonadan chiqadigan to'qima va chiqindilarning massalari yig'indisi teng bo'lishi shart. Shuning uchun xam ushbu vazifani xom ashyo balansi (yoki muvozanati) deb yuritiladi.

Xom ashyo balansi jadvalini (4.2-jadval) to'ldirish quyidagi tartibda bajariladi. Jadvalni ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida to'quvchilik korxonasiga keltirilgan xom ashyo - tanda va arqoq iplari, oxor moddalari miqdori keltiriladi. Bir yilda talab qilinadigan tanda va arqoq iplari miqdori to'quvchilik korxonasining ishlab chiqarish dasturi asosida qabul qilinadi. Oxor moddalari miqdori esa tajribali to'quvchilik korxonalarini tavsiyalari asosida qabul qilindi. Jadvalning ikkinchi bo'limida aniqlangan barcha qiymatlar yig'indilari birinchi qismdagi qiymatlar bilan taqqoslanadi.

## Xom ashyo balansi.

Korxonaga kelgan					Korxonadan olingan					
Maxsulot nomi	%	Maxsulot miqdori kg	1kg narxi Summ	Umumiy qiymati ming.sum.	Maxsulot nomi	%	Maxsulot miqdori kg	1kg narxi Summ	Xarajat ming.summ.	
1		2	3	4	5		6	7	8	
Tanda T=25  Arqoq T=25		2386300	21000	50112300	Xom to'qima	98,37	3608756.9	21322	76949023,6	
					CHIqindilar:					
					1.chigal ip	0,412	15137.5	1250	18921,87	
					2.yumshoq i	0,097	3579.45	1250	4474,31	
					3.oxor ip	0,084	3102.19	1750	5428,83	
					4.suprindi	0,024	1100.61	55	60,53	
	5.pux,obmet	1,009	37023.35	1750	64790,86					
					Jami chiqindi	1,633 %	59943.1		93676,4	
Xammasi		3668700		77042700	Xammasi	100%	3668700		77042700	

## 4.3.Korxonada ishchilar sonini aniqlash.

TSex va bo'li m	Ishchilar kasblari	Jixoz soni	Ishchilar soni			
			1-smena	2-smena	3-smena	jami
Tandalarash	Usta yordamchisi	2	1	1	1	3
	Tandalovchi		2	2	2	6
	Tandalovchi yordamchisi		2	2	2	6
	Moylovchi		1	1	1	3
	Farrosh		1	1	-	2
	CHilangar		1	1	1	3
	Yuk tashuvchi		2	2	2	6
O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri	Usta yordamchisi	2	1	1	1	3
	Oxor <sup>^</sup> cM		2	2	2	6
	Oxorlovchi yordamchisi		2	2	2	6
	Oxor tayyorlovchi		1	1	1	3
	Laborant		1	1	-	2
	Tanda g' altagi tahmirlovchisi		2	2	2	6
	Farrosh		1	1	-	2
	Tarozibon		1	1	1	3
	Yuk tashuvchi		1	1	1	3
	Ulash- o'tkazish		Usta yordamchisi	2	1	1
Ulovchi		2	2		2	6
Yordamchi ulovchi		2	2		2	6
Uzatuvchi		2	2		2	6
O'tkazuvchi		2	2		2	6
Tahmirlovchi		1	1		1	3
To'quv	Usta yordamchisi	280	1	1	1	3
	To'quvchi		8	8	8	24
	Uzuq ulovchi		2	2	2	6
	Arqoq tashuvchi		3	3	3	9
	Tanda taxtlovchi		3	3	3	9
	Moylovchi		2	2	2	6
	Tozalovchi		1 1		1	3
	Xom to' qima tashuvchi		1	1	1	3
	Farrosh		1	1	-	2





<b>Sifat- nazorat</b>	<b>Usta yordamchisi</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>6</b>
	<b>Bosh nazoratchi Sifat nazoratchisi</b>		<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>3</b>
	<b>O'lchovchi</b>		<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>3</b>
	<b>Tikuvchi</b>		<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>6</b>
	<b>Tozalovchi</b>		<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>6</b>
	<b>Tashuvchi</b>		<b>2</b>	<b>2</b>	<b>2</b>	<b>6</b>
	<b>Farrosh</b>		<b>1</b>	<b>1</b>	<b>-</b>	<b>2</b>
	<b>Chiqindi bo'limi</b>		<b>Chiqindi bo'limi ishchisi</b> <b>Chiqindi bulimi ishchisi</b>	<b>2</b>	<b>1</b>	<b>1</b>
<b>Ombor</b>	<b>omborchi(xom ashyo)</b>	<b>2</b>	<b>2</b>		<b>2</b>	<b>6</b>
	<b>omborchi(xom ashyo)</b>	<b>2</b>	<b>2</b>		<b>2</b>	<b>6</b>
<b>xammasi</b>			<b>72</b>	<b>72</b>	<b>67</b>	<b>211</b>
<b>Muxandis texnik xodimlar (10%)</b>						<b>21</b>
<b>Korxonaga bo'yicha jami</b>						<b>232</b>

#### 4.4. Tugallanmagan ishlab chiqarish.

Tugallanmagan ishlab chiqarish - korxonaga keltirilgan (ombordan chiqarilgan), lekin tayyor mahsulot sifatida ishlab tugallanmagan xom ashyo va yarim mahsulotlar ogirliklari yig'indisi bo'lib, ular 5 ta toifaga bo'linadi:

1. toifa - mashinani ishchi organlaridagi yarim mahsulotlari (N1, kg.)(tugallanmagan bobinalar, tanda g'altagidagi, to'quv g'altagidagi, to'qima ruloni va v.k.)

2. toifa - fabrikani yarim mahsulotlari, mashinani qabul qiluvchi ishchi organlaridagi.(shoulyarnikdagi bobinalar va v.k.)

3. toifa - fabrikani yarim mahsulotlari, qayta ishlovda bo'lganlar (arqoq namlashda, potok liniyasidagi xom to'qima)

4. toifa - mashinani qabul qiluvchi organlaridan olingan yarim mahsulotlar, lekin keyingi jarayonga o'tmagan.

5. toifa - zaxiradagi iplar va fabrikani yarim maxsulotlari.(babina ,naycha-0,5-1,0 smenaga, tanda va to'quv g'altaklari - 1-2smenaga).

4.4-jadval

Tugallanmagan ishlab chiqarishni hisobi.

Mahsulot	K	G	N	Ni		
Tandalash	0,5	551.064	2	551.064		
oxorlash	0,5	506.247	2	506.247		
O'tkazish	0,5	506.247	2	506.247		
ulash	0,5	506.247	2	506.247		
Xom to'qima: tanda arqoq	0,5	2.033		1.01		
jami				2070.815		
Tandalash	0,5	2.033	480	487.92		
oxorlash	0,5	551.064	8	2204,256		
O'tkazish	0,5	506.247	2	506.247		
ulash	0,5	506.247	2	506.247		
Xom to'qima	0,5	506.247	280	70874.58		
jami				74579,25		
Tandalash	--	--	--			
oxorlash	--	--	--			
O'tkazish	--	--	--			
ulash	--	--	--			
Xom to'qima	0,5	506.247	2	506.247		
jami				506.247		
		G	M	q	p	
Tandalash	-	551.064	8	1	2	8817.024
oxor	-	506.247	6	1	2	6074.964
O'tkazish	-	506.247	6	1	2	6074.964
ulash	-	506.247	6	1	2	6074.964
Tukuv dastg.	-	506.247	6	1	2	6074.964
jami						33116.88
Tandalash	Tan.g'al	-	-	-	-	
oxorlash	To'quv g'al.	-	-	-	-	
O'tkazish	To'quv g'al.	-	-	-	-	
ulash	To'quv g'al.	-	-	-	-	
Xom to'qima						
Tanda	0.5	56.9	29			825,05
Arqoq	0.5	56.9	23			654,35
jami						1479,4

#### 4.5-jadval

maxsulot	Toifalar					
	1	2	3	4	5	jami
Tandalash	551.064	487.92		8817.024		9856,008
oxor	506.247	2204,256		6074.964		8785,467
otkazish	506.247	506.247		6074.964		7087,458
ulash	506.247	506.247		6074.964		7087,458
Xom to'qima: tanda arqoq	1,01	70874.58	506.247	6074.964	825,05	78281,851
Jami: tanda arqoq					654,35	654,35
jami	2070,815	74579,25	506.247	33116.88	1479,4	111752,592

$$Ni = Ki \times Gi \times Ni$$

(1,2,3 toifa uchun)

$i$  - o'ramni o'rtacha to'lish darajasi  $G_i$  -

yarim mahsulotni ogirligi  $N_i$  -dastgox

soni

$$H_4 = G_4 \times m_4 \times q_4 \times p_4$$

(4toifa uchun)

$G_4$  -yarim mahsulotni og'irligi  $m_4$  - guruxdagi

ya/m.soni  $q_4$  -patok soni  $p_4$  - guruxdagi patok

soni

5-toifani aniqlashda qopni og'irligi va uning soni hisobga olinadi.

Kunlik tugallanmagan ishlab chiqarishni

$$H = III / P_{sut} = 111752,592 / 11908,8 = 9,384 \text{ kg}$$

$u$  -umumiy toifalar yigindisi

$P_{sut}$  - bir sutkada ishlatiladigan io ogirligi,kg.

**4.5.Elektr energiya xisobi**

№	Texnologik jihozlar nomi va rusumi	Texnologik jihozlar quvvati		
		1 ta mashinani o'rnatilgan quvvati, kVt	Mashinalar soni	Umumiy o'rnatilgan quvvati, kVt
1	Tandalash mashinasi ZC-R	18.5	2	37
2	Oxorlash mashinasi Ben FILATEK	20.5	2	41
3	Ulash mashinasi TOMATIK	0.1	2	0.2
4	Tukuv dasgoxi	1,8	280	504
5	Stema	0.8	2	1.6
JAMI				583.8

Yoritish uchun sarflanadigan elektr energiya quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$N = n \cdot F \cdot 0.001 = 50 \cdot 6048 \cdot 0.001 = 302.4 \text{ kVt}$$

$N_Y$  - barcha yoritgichlarni quvvati, kVt;

$n_Y$  - bir kvadrat metr maydon uchun nisbiy yotirish quvvati, vatt;

(tayyorlov va to'quv tsexlari uchun 50 vatt).

$F$  - yoritiladigan maydon,  $\text{m}^2$ ;

Bir yilda iste'mol qilinadigan elektr energiya miqdori, kVt/soat.

$$\mathcal{E} = (\mathcal{E} + \mathcal{E}_{yoz} + \mathcal{E}_{as}) \times T \cdot kVt / soat = (302.4 + 583.8 + 194.4) \times 7392 = 79877952 \text{ 3j, 3yor., 3as.ts.}$$

mos ravishda jihozlar, yordamchi tsehlar va asosiy tsehlarni yoritish uchun bir soatda sarflanadigan energiya,

kVt/soat.;

$T$  - bir yildagi ish soati, soat.

Bir yilda iste'mol qilinadigan elektro energiya uchun sarf bo'ladigan mablag'  $C_{\mathcal{E}} = \mathcal{E} \times U \times 1,1 =$

$$79877952 \cdot 2 \times 230 \times 1,1 = 2020912185 \text{ .6sum} = 2020912 \cdot 185 \text{ min .so'm.}$$

3- bir yilda isarflanadigan elektr energiya, kvt/soat;

$U$  - bir kilovatt energiyaning ta'rif qiymati, sum;

1,1 - elektr jihozlarini ekspluatatsiya qilish uchun sarf bo'ladigan mablag' koeffitsienti (10%).

#### 4.6. Korxonaning tashkiliy- texnologik ko'rsatkichlari.

Korxonaning texnik, tashkiliy va iqtisodiy samaradorligini ko'rsatkichlari har jihatdan aniqlanganda ular ro'yxati juda ko'p bo'lishi ma'lum. Shuning uchun diplom loyihasida bajarilgan hisoblash-loyiha ishlarining mazmuni va hajmini inobatga olib loyihalangan korxonaning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlari aniqlanadi. Ko'rsatkichlarni ayrimlari raqamlar ko'rinishida avvalgi bo'limlardan olib qo'yiladi. Ayrim ko'rsatkichlar hisoblab topiladi. Quyidagi jadvalda tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartiblari ko'rsatilgan. Ayrim ko'rsatkichlarni hisoblash formulalari

##### 1. Bir yildagi o'rtacha ishchi

$$I_s = \frac{I_x \times T}{3} \text{ (ishchi.soat)} = \frac{232 \times 7392}{3} = 571648$$

soatlar  $I_s = I_x \times T/3$  (ishchi soat)

Bu yerda  $I_x$ - Jami ishchi va xodimlar soni;  $T$ -bir yildagi ish soatlari, soat;  $3$ - sutkadagi smenalar soni.

$$M'_{uu} = \frac{m}{I_s} \text{ (m / ishchi.soat)} = \frac{25887400}{571648} = 45,28.$$

##### 2. Mehnat unumdorligi:

Bu yerda  $M$ -bir yilda ishlab chiqariladigan mahsulot, metr;

$$M'_{uu} = \frac{Sm}{I_s} \text{ (sum / ishchi.soat)} = \frac{556579100}{571648} = 973,63$$

$Sm$ -bir yilda umumiy mahsulot sotish narxi, so'm.

##### 3. 1 m<sup>2</sup> ishlab chiqarish maydonidan olinadigan mato

$$g^i = \frac{Sm}{S} \text{ (sum / kv.m.)} = \frac{556579100}{7776} = 71,57$$

$$g^{ii} = \frac{25887.4}{7776} \text{ (metr / kv.m.)} = 3,32$$

**bu yerda S-ishlab chiqarish maydoni, m.**

**Korxonaning tashkiliy- texnologik ko' rsatkichlari .**

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Qiymati
1	To'qima artikuli	--	1512
2	To'qima nomi	--	Smolenka
3	Ipnini chiziqiy zichligi:tanda arqoq	teks	25
			25
4	To'quv dastgox turi	(rusumi)	Toyota
5	Xom to'qima kengligi	sm	140
6	Taxtlangan dastgoxlar soni	dona	280
7	Bir yildagi ish kunlari	kun	308
9	Bir yildagi ish soatlari	soat	7392
10	Taxtlangan dastgoxlar soat	mihg dast.soat	2069.7
11	Foydali vaqt koeffitsenti	-	0,85
12	Mashinaning ishlash koeffitsenti	--	0,96
13	Ishlayotgan dastgoxlar soati	mihg dast.soat	1986.912
14	Dastgoxni unumdorligi	m /soat	13.029
		m <sup>2</sup> /soat	17.974
		arq./soat	25800
		m arq./ soat	35604
15	Bir yilda ishlab chiqarilgan maxsulot hajmi	ming.m.	25887.4
		ming m <sup>2</sup>	35712.7
		mln.arqoq /soat	51262.3
		mln.m.arqoq/soat	70742.0
16	Bir yilda ishlatiladigan ip sarfi	tonna	3668.7
17	To'qimani soatli topshirig'i	m/soat	3502.0
18	Xom ashyo turi va tarkibi : a)tanda - paxta ipi b)arqoq - paxta ipi	%	100
		%	100
19	Xom ashyodan mahsulot chiqishi	%	98,37
20	Korxonada 1 yilda elektr energiya istemoli	kVt/soat	7987795.2
21	Korxonada 1 yilda elektr energiya istemoli	min. so'm	2020912,185
25	Jami xom ashyo qiymati	min. so'm	77042700
26	1 metr toqimani sotish narxi	so'm	21500
27	Umumiy mahsulot sotish qiymati	min. so'm	556579100
28	Jami ishchi va xodimlar soni	kishi	232
29	Mehnat unumdorligi	Metr/ ishchi soat	45,28
		So'm/ ishchi soat	973,63
30	1 m <sup>2</sup> ishlab chiqarish maydonidan olinadigan ip	Metr /m <sup>2</sup>	3,32
		Sum/m <sup>2</sup>	71,57





## **Xulosa va tavsiyalar**

**“1512 artikuldagi mato ishlab chiqaruvchi, quvvati 220ta to'quv dastgohi bo'lgan to'quv korxonasini texnologik loyihasi” mavzusidagi bitiruv malaka ishini bajarish natijasida quyidagi xulosalar va tavsiyalarni keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi:**

**1. Klassik mavsum bop to'qimalar xozirgi kunda barchani o'ziga jalb qilishni doimiy xaridorgirligi, bozorda o'z o'rniga egaligi axamyatlidir.**

**2. To'qima art.1512 “Smolenka ” qayta tarash usulida yigirilgan, kalava ipdan polotno o'rilishida to'qilgan gazlama sog'liq uchun foydali, pishiqligi, xam yaxshi va arzonligi bilan qulaydir.**

**3. Xom to'qimani enini 140sm qilib olindi, xozirgi kunda jaxon bozorida bunday endagi matolarga talab yuqori.**

**4. Texnologik qismda bajarilgan xisoblar asosida bir metr xom to'qimani og'irligi 140 gr. tashkil etdi.**

**5. To'qimani loyixalashda Toyota (Yaponiya) rusimdagi pnevmatik to'quv dastgohi qabul qilindi, to'quv dastgohini ishchi eni 150sm.,bosh valni aylanish soni 500 ayl./min.**

**6. Tayota (Yaponiya) to'quv dastgohini unumdorligi -13.029 m/soat, bir yilda ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi- 25887.4 ming.metr, 1 metr mahsu- lotni umumiy sotish qiymati-21500 so'm, umumiy mahsulot sotish qiymati - 556579100 ming.sumni tashkil qiladi .**

**Yuqorida keltirilgan xisob kitoblar va olingan natijalar asosida shuni hulosa qilish mumkinki:**

**Tayota (Yaponiya) rusumli to'quv dastgohida loyixa uchun olingan 1512 artikuli Smolenka matosini to'qish qulay va samarali**

**- Loyixadagi korxonani jixozlari zamonaviy bo'lganligi uchun sifatli mato olish mumkin. Unumdorligi yuqori va ishchilari uchun xam boshqarish qulaydir.**

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. O'zbekiston. 1999
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 8 dekabr 1992
3. P.S. Sidditov. "Toqimachilik maxsulotlari va jixozlari Toshkent "Ataqachi" 2012 yil.
4. Olimboyev E. Sh. "To'qimalar tuzilish nazaryasi." AloqacBI" nashr. Toshkent. 2006 yil.
5. ГОСТ 9205-76 Ип газламалар учун «Тайёр тўқималар кенглиги»
6. Nitolayev S. D., Xasanov B. K., Sodikova N. R. "To'qishga tayyorlash jarayonlari nazaryasi va texnologiyasi" O'zbekiston 2004 yil.
7. P. S. Siddikov "Texnologik jarayonlarni loyixalash" Toshkent.
8. Мартынова А. А. Строеение и проектирование тканей. М., 1999 год.
9. Букаев П. Т. и др. Справочник Хлопчаткачества. М., 1987 год.
10. Миловидов Н. Н. Проектирование хлопкопрядильных фабрик. М., 1981 год.
11. Chet el firmalari uskunalarining texnik pasportlari. ( va boshqalar)
12. Olimboyev E. Sh., Davirov Sh. N. « O'zbekiston korxonalarining mahsuloti va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi », T. 2002 y
13. Azizov I. R. «Texnologik jarayonlarni loyihalash (Ma'ruzalar matni) 2006 y
14. Olimbayev E. Sh. va boshqalar «To'quvchilik texnologiyasi va to'quv starnklari» T., «o'qituvdh» 1987 y.
15. Талавашек О., Святой В. Бесчелночные ткацкие станки. МДетромиздат., 1985 год
16. Mehnat muhofazasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent 6 may 1993 y.
17. Mehnat kodeksi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent 26 may 1996 y.
18. Кудратов А. К. Мехнат мухофазаси. Т. 1995 й.
19. Д. Л. Кельберт «Проектирование и расчет средств охраны труда в текстильной и легкой промышленности». М., 1979 год.
20. [www.bellisima-rus.ru](http://www.bellisima-rus.ru)
21. [www.otkani.ru](http://www.otkani.ru)